



**MA'MURIY ISHLARNING SUDGA TAALLUQLILIGI**  
**MASALALARI**

*Iqboloy Ummatova*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti*

*3-kurs talabasi*

*[iqboloyummatova27@gmail.com](mailto:iqboloyummatova27@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola doirasida muallif tomonidan fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi, O'zbekiston Respublikasidagi sud tizimi va ma'muriy sudga taalluqli ishlar haqida tahlil qilingan. Ma'muriy sudga taalluqli ishlarning har biri haqida alohida sharh berilgan holda masala yoritilgan. Shuningdek, mavzu doirasidan kelib chiqib tegishli xulosa taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** Sud tizimi, ma'muriy sud, taalluqlilik, protsessual mezon, saylov komissiyasi, notarial harakat, investitsiya, raqobat.

**Abstract:** Within the framework of this article, the author analyzed the right of citizens to appeal to court, the judicial system in the Republic of Uzbekistan and cases related to the Administrative Court. The issue is covered with a separate review of each of the cases involving the Administrative Court. A relevant conclusion is also presented based on the scope of the topic.

**Keywords:** judicial system, Administrative Court, relevance, procedural criterion, Electoral Commission, notary action, investment, competition.

**Аннотация:** В рамках данной статьи автором был проведен анализ прав граждан на обращение в суд, судебной системы Республики Узбекистан и дел, касающихся административного суда. Освещается вопрос с отдельным комментарием по каждому из дел, относящихся к административному суду. Также представлено соответствующее заключение, основанное на предметной области.



**Ключевые слова:** судебная система, административный суд, применимость, процессуальный критерий, избирательная комиссия, нотариальное действие, инвестиции, конкуренция.

Davlat tomonidan fuqarolarimizning huquq va manfaalari qonunchilik asosida mustahkamlangan va bu huquqlaridan foydalanishi uchun ularga barcha shart-sharoitlar ta'minlab beriladi. Ammo, inson borki, nizo bor. Inson ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, turli xil tushunmovchiliklar yoxud boshqa tashqi ta'sirlar oqibatida nizoli vaziyat ichida qolishi mumkin. Bunda u o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishi imkoniyatiga ega bo'ladi. Bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning 55-moddasiga asosan har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Mamlakatimizda sud tizimi „Sudlar to‘g‘risidagi qonun” 2-moddasi mazmuniga asosan quyidagilardan iborat: Oliy sud, Konstitutsiyaviy, jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlar.

Tan olishimiz joizki, fuqarolarimiz uchun ma'muriy sudlar ko‘radigan ishlar doirasi boshqa sudlarnikiga nisbatan birmuncha tushunarsizroq. Buning sababi ma'muriy sudlar yaqin yillar davomida tashkil qilinganligi ham bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 26-moddasida ma’muriy sudga taalluqli ishlar belgilangandir. Shu o‘rinda taalluqlilik tushunchasiga ta’rif berib o‘tsak. Taalluqlilik - nizoning mazmuni va uni hal etuvchi subyektning vakolatlaridan kelib chiqib, shu nizoning qaysi vakolatli subyekt tomonidan hal qilinishini belgilab beruvchi protsessual mezon sanaladi.<sup>1</sup> Moddaga muvofiq Ma’muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonunij manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi, ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir. Shu o‘rinda alohida ta’lidlab o‘tishimiz kerak bo‘lgan

<sup>1</sup> J.K. Zoilboyev „Ma’muriy sud ish yurituvi” darslik, Toshkent-2024



yana bir jihat mavjud; ma'muriy sud ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ishlarni ko'rib chiqmaydi.

Shuningdek, Ma'muriy sud tomonidan hal etiladidan 8 turdag'i ishlar mavjud<sup>2</sup>.

➤ Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

Bunda **idoraviy normativ-huquqiy hujjat** — qonunchilikka muvofiq vazirlik va idora tomonidan qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat hisoblanadi. Fuqarolar ular yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar mavjud bo'lgan taqdirda ma'muriy sudga murojaat qilishlari lozim bo'ladi. **Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qaror va buyruq** shaklida qabul qilinishi mumkin. Vazirlik va idoralar idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qiladi<sup>3</sup>. Idoraviy normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston qonunchiligidagi ko'lamiga ko'ra kata hajmni tashkil etib, fuqarolar, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga ham ta'siri bor. Ta'kidlash joizki, ushbu hujjatlardagi qonunga zid qoidalarni ma'muriy sudda nizolashishning protsessual tartibi O'zbekistonda 2018-yilda ilk marotaba joriy etilgan.

➤ Mahalliy davlat hokimiysi organlarining, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning (bundan buyon matnda ma'muriy organlar deb yuritiladi), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

Bunda farlashimiz kerak bo'lgan jihat shundan iboratki, ushbu organlarning hamma qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar ham ma'muriy sudga

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi

<sup>3</sup> O'zbekiston respublikasi Adliya vazirining buyrug'i „Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarni tasdiqlash to'g'risida”



taaluqli bo‘lavermaydi. Masalan, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjat hisoblanuvchi qarorlar ham chiqarishi mumkin. Bunda ushbu ko‘rinishdagi ishlar ma’muriy sudga emas, aksincha, konstitutsiyaviy sudning sudloviga taalluqli bo‘lib qoladi. Bu organlarning individual tusdagi qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi nizolar ma’muriy sudga taalluqlidir. Masalan, hokimning ma’lum bir fuqaroga yer ajratish to‘g‘risidagi qarori ustidan nizo. Bunda bir tomonda ma’muriy organ ikkinchi tomonda esa fuqaro turadi. Ma’muriy sudlar tomonidan ko‘riladigan ishlarning asosiy xususiyati ham bunday ishlarda davlat organi (ma’muriy organ) ning ishtirok etgan bo‘lishidadir. Bunday nizolarda, albatta, ikkinchi tomon bo‘lib qaysidir vazirlik, qo‘mita, hokimlik yoki ma’muriy-huquqiy faoliyat-ni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa idoralar (subyektlar) ishtirok etadi. Davlat organining mavjud emasligi nizoning ma’muriy sudda ko‘rilishini istisno etadi.

➤ Saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi;

Saylov saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar ham ma’muriy sudlar sudloviga taalluqli bo‘lib bunda nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalar organlari, nomzodlar, ishonchli vakillar, kuzatuvchilar va saylovchilar saylov komissiyalarining qarorlari ustidan ushbu qarorlar qabul qilinganidan keyin besh kun ichida sudga shikoyat qilishi mumkin. Markaziy saylov komissiyasining qarorlari ustidan qaror qabul qilinganidan keyin besh kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin. Shikoyat kelib tushganidan keyin uch kun ichida, saylovga olti kundan kam vaqt qolganida yoki ovoz berish kuni esa darhol ko‘rib chiqilishi kerak. Shikoyat bergen shaxslar shikoyatni ko‘rib chiqishda bevosita ishtirok etish huquqiga ega.<sup>4</sup>

➤ Notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro‘yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi;

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi



Bu e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan jihat shundan iboratki, notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi xususidagi nizolar ma'muriy sud sudloviga taalluqlidir. Agar notarial harakatni amalga oshirganlik va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olganlik to'g'risidagi ishlar bo'ladigan bo'lsa ma'muriy sudga taalluqli bo'lmaydi. Shuningdek, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi nizolar ham ma'muriy sudga taalluqlidir.

➤ Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovlash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi;

Huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish— yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum huquqlari yuzaga kelganligi, boshqa shaxsga o'tganligi, cheklanganligi va bekor qilinganligi faktini davlat tomonidan tan olish hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha organdir. Ushbu organ mansabdor shaxsi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin holati amalga oshirilsa, bu holat ustidan fuqarolarning shikoyatlari ma'muriy sudga taalluqli bo'ladi.

➤ investitsiya nizolari bo'yicha;

Investitsiyaviy nizolar jumlasiga investorlar bilan ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtaсидаги ular mansabdor shaxslarining investitsiya shartnomasi shartlariga rioya qilinishi bilan bog'liq qarorlariga, harakatlariga (harakatsizligiga) doir ishlar kiradi.<sup>5</sup>

➤ raqobat to'g'risidagi;

Raqobat to'g'risidagi ishlar bo'lib yuridik shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik shaxslar, xo'jalik boshqaruvi organlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va monopoliyaga qarshi organ o'rtaсида tovar hamda moliya bozorlarida raqobat

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi



sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan, ma'muriy sud sudloviga tegishli nizolar hisoblanadi.

➤ ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha undirish so'zsiz tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni hal qiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar bu ma'muriy organlarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat boshqaruvi jarayonida yuzaga kelgan va ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solingan huquqiy munosabatlarning bir turidir. Ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha undirish so'zsiz tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat ustidan ma'muriy shikoyat qilish lozim bo'ladi. Shuningdek, davlat ijrochisining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat qaror chiqarilganligi to'g'risida xabar qilingan kundan yoki manfaatdor shaxsga o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi haqida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kunlik muddatda<sup>6</sup> davlat ijrochisi joylashgan yerdag'i ma'muriy sudga berilishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ma'muriy sudlar O'zbekiston sud tizimida nisbatan yangi bo'lib, ular ma'muriy huquqbazarlik emas, balki fuqarolar va yuridik shaxslarning ma'muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarini ko'radi. Ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligi masalalari davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Har bir fuqaro o'z huquqlarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega bo'lib, bu davlat tomonidan qonuniy asosda ta'minlanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ma'muriy sudlar idoraviy hujjatlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarining qonunga zid harakatlari, saylov jarayonidagi nizolar, shuningdek notarial va davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq kabi bir qancha masalalarni ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, investitsiya va raqobatga doir nizolar ham ma'muriy sudlar tomonidan hal qilinadi. Mazkur sudlarda davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi nizolar ko'rib chiqilishi ularning xususiyatini tashkil etadi. Shu

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.04.2023 yildagi O'RQ-833-sod



tariqa, ma'muriy sudlar fuqarolar manfaatlarini davlat qarorlari va harakatlariga qarshi himoya qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. J.K. ZOILBOYEV „MA'MURIY SUD ISH YURITUVI” DARSLIK, TOSHKENT-2024
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISH TO'G'RISIDAGI KODEKSI
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I „IDORAVIY NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TAYYORLASH VA QABUL QILISH QOIDALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA”
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAYLOV KODEKSIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAYLOV KODEKSI
5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI, 26.04.2023 YILDAGI O'RQ-833-SON